

**TOSHKENT SHAHAR  
MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARI  
FAOLIYATINING ASOSIY  
STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**  
*(2022- yil oxiriga)*





Maktabgacha ta‘lim bo‘yicha press-reviz bu sohadagi rivojlanishlanish tendentsiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-revizda, birinchi navbatda, maktabgacha ta‘lim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarashga imkonini beruvchi rasmiy statistik ma‘lumotlar keltirilgan.

Press-revizning asosiy maqsadi maktabgacha ta‘lim sohasidagi hozirgi holatni aks etirish, taqdim etilayotgan maktabgacha ta‘lim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo‘lidagi natijalar sarhisobi, shuningdek, farzandlarimizning ta‘lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko‘maklashishdan iborat.

Maktabgacha ta‘lim bola hayotidagi eng muhim bosqich bo‘lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga ta‘sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo‘lsa-da, ular o‘zaro bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta‘lim, ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

Press-revizda maktabgacha ta‘lim tizimining turli jihatlarini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar, xususan, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va ulardagi bolalar soni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichlari kabi ma‘lumotlar keltirilgan.


Press-revizni tayyorlash uchun tegishli vazirliklarning statistik hisobotlari va idoraviy ma‘lumotlari to‘plandi. Olingan ma‘lumotlar maktabgacha ta‘lim sohasidagi mavjud vaziyatni tahlil qilish va obyektiv baholashga, ushbu soha samaradorligini baholashga va muammoli masalalarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu press-revizda taqdim yetilgan ma‘lumotlar, demograflar, iqtisodchilar, statistiklar, ommaviy axborot vositalari, ta‘lim tashkilotlari, ota-onalar va ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilishi uchun foydali bo‘ladi.






## Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (yil oxiriga, birlik)



## Tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (2023- yil 1- yanvar holatiga, birlik)







## Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rinlar soni (yil oxiriga, ming birlik)




## Tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rinlar soni (2023- yil 1- yanvar holatiga, ming birlik)








## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagoglar soni (yil oxiriga, nafar)




## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagoglar soni (2022- yil oxiriga, nafar)






## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (yil oxiriga, birlik)



## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2022- yil oxiriga, birlik)






## Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning joylar bilan ta'minlanganligi

(100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, nafar)




## Tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning joylar bilan ta'minlanganligi

(100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, nafar)






## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \* (yil oxiriga, ming nafar)



## Tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni

(2022- yil oxiriga, ming nafar)



\*Yuridik maqomdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni









## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni

(yil oxiriga, ming nafar)



## Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni


(2022- yil oxiriga, ming nafar)







## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti

(yil oxiriga, ming nafar)



## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning tumanlar bo'yicha gender taqsimoti


(2022- yil oxiriga)






## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni

(yil oxiriga, ming nafar)




## Tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni

(2022- yil oxiriga, ming nafar)






### 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi\*



### Tumanlar kesimida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (2022- yil oxiriga, ming foizda)




\* 2019- yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan taqdim etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarini qo'shgan holda






## Gender bo'yicha aholi o'rtasida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi



## Gender bo'yicha tumanlar kesimida, aholi o'rtasida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi







## ATAMALAR VA TA'RIFLAR

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti** belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotchisiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

**Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot.

**Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** — qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni** – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni** – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini ulardagi o'rinlar soniga bo'lib 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

**Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar bilan ta'minlanganligi (1000 bolaga to'g'ri keladigan o'rinlar)** – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonini 3-6 yoshdagi aholi soniga bo'lib 1000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 3-6 yoshdagi bolalarni mazkur yoshdagi aholi soniga nisbatini ifodalaydi.

**Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlariga** tuman, shahar, viloyat, respublika "Barkamol avlod" bolalar markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, sog'lomlashtirish oromgohlari va boshqa tashkilotlar kiradi.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi**



**Manzil: 100000, Toshkent sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 11**



**Tel.: +99871 203-88-27**



**e-mail: [ijtimoiy\\_soha@toshstat.uz](mailto:ijtimoiy_soha@toshstat.uz)**



**[www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz)**



**[facebook.com/Toshkentshahar  
statistika boshqarmasi](https://facebook.com/Toshkentshaharstatistika)**

